

4 neye

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



TASAVVUF VA BADIY IJOD

fanining ishechi o'quv dasturi

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Toshkent – 2023

Fan/modul kodi 302TBI 4, 4		Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024						
Semestr	Har bir semestrdağı modulning nomi	ECTS - Kreditlari	Haftalik dars soatları	O'quv mashg'ulotlari (soat)						Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
				Jami:	ma'ruba	seminar	amaliy	laboratoriya				
7	Tasavvuf va badiiy ijod	4	4	60	20	20	20	0	60	120		
	Jami:	4	4	60	20	20	20	0	60	120		

1. FANNING MAZMUNI

O'zbek mumtoz adabiyoti qadimiy sarchashmalarga ega bo'lib, ko'p ming yillik rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Shu jarayonda turli falsafa, din va oqimlar bilan munosabatga kirishdi. Ularning orasida eng muhimlaridan biri tasavvuf ta'limoti bo'lib, tasavvuf va badiiy ijod asrlar davomida bir-biriga kuchli ta'sir ko'rsatdi, yangi qirralari shakllanishiha zamin yaratdi. O'zbek adabiyotining klassik davrida tasavvuf falsafasi adabiyotning mazmun-mohiyatiga aylandi. Shu ma'noda, "Tasavvuf va badiiy ijod" fanining maqsadi – tasavvuf va badiiy ijod o'rtaqidagi munosabatlarni, mazkur ta'limotning paydo bo'lish tarixi, rivoji, mohiyati, asosiy tushuncha va istilohlari anglatgan ma'nolar, sufiyona adabiyotning o'ziga xos jihatlarini o'rgatishdir. Shuningdek, tasavvufi adabiyotining boy ijodiy merosini filolog talabalarga ta'lim berish orqali ularmi yuksak ma'naviyatli va keng ma'rifa sohibi etib tarbiyalashdir. Yoshlarning ma'naviy dunyosini milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga g'oyat samarali ta'sir ko'rsatadigan, ayni paytda, o'zbek mumtoz adabiyoti va milliy ma'naviyatining shaklanish qonuniyatlarini anglash yo'lida ochqich – kalit vazifasini bajaradigan tasavvuf va badiiy ijod munosabatini o'rganish orqali yoshlarda sog'lim tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek adabiyoti tarixi haqida har tomonloma bilim hoslil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish ushu o'quv fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun "Tasavvuf va badiiy ijod" fani oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- talabalarga tasavvuf va badiiy ijod o'rtaqidagi munosabatlarning shakllanish tarixi, sufiyona adabiyotning mazmun-mohiyati haqida ma'lumot berish;
- tasavvuf ta'limoti va badiiy adabiyotning bosh masalasi bo'lgan inson kamoloti va komil inson ma'naviyati haqidagi qarashlarini ilmiy asosda chuqur o'rganish, amalga tatbiq etish usul va vositalarni aniqlash;

2

– tasavvuf adabiyoti namunalarini o'rganish orqali sufiyona timsol va obrazlar ma'nolarini aniqlash, badiiy so'z shukuhi, o'zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalanish **malakasini shakllantirish**;

– tasavvuf va badiiy ijodning ko'p asrlik munosabatlari tarixi misolida adabiyotning o'zbek xalqi ma'naviyatining shakllanishi va rivojiga ko'rsatgan ta'siri haqida ma'lumot berish, talabalarda milliy ma'naviyatimizning teran ildizlari haqida **tasavvur hoslil qilish**;

– sufiyona adabiyotning badiiy olami, tabiatni va qonuniyatlarini tadqiq etish, timsol va ramzlarini mohiyatini teran anglash va to'g'ri tahlil etish **ko'nikmasini hoslil qilish**;

– egallangan bilim va ko'nikmalarini jamiyatda ezgu insoniy fazilatlarning barqaror bo'lishga yo'naltirish va h.k.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ushbu fan tasavvuf va badiiy ijod munosabatining muhim jihatlar, tarixi haqidagi eng muhim ma'lumotlar, tasavvuf falsafasining mazmuni, asosiy atamalari, sufiyona adabiyot namunalarining poetikasi, uslubiy xususiyatlarini o'qitish bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan.

"Tasavvuf va badiiy ijod" fanini to'liq o'zlashtirish bakalavriat bosqichi talabalaringan dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni mustahkamlash, badiiy did va adabiy idrokni o'stirish hamda ularda tadqiqotchilik malakasini shakllantirish uchun zamin hozirlaydi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun "Tasavvuf va badiiy ijod" fani talabalaringan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga doir muammolarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarlarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- tasavvuf tarixi va nazariyisiga doir tavsiya etilgan birlamchi manbalar: risola, manqaba, maqomot va tazkiralar mazmuni bilan tanishishlari lozim. Tasavvufning manshayi va manbalari hisoblangan Qur'oni karim, Hadisi sharif, tafsir va kalom ilmiga oid birlamchi ma'lumotlardan xabardor bo'lishlari masalaning mohiyatiga yetishga yordam beradi. Tasavvuf tarixiga oid manbalar bilan bir qatorda Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari, yurtimizdan chiqqan buyuk mutasavviflarning manqabaviy hayot yo'lil va ularning mashhur asarlari mazmunitini ham bilishlari kerak bo'ladi. Bularдан tashqari, badiiy asarlар tarkibidagi irfoniy va tasavvufi g'oya va talqinlarni anglashi, ramz va timsollar ma'nolari haqida **tasavvurga ega bo'lishi**:

- muayyan nazariy masalalarning qonuniyatlarini aniqlash, sufiyona timsol va obrazlarning ildizlariga murojaat qilish, adabiy hodisaning bugungi nomlanishi bilan mumtoz adabiyotshunoslikdagiligi istilohiy munosabatlari haqida bilim va **ko'nikmalarga ega bo'lishi**;

3

– sufijona adabiyot namunalarining ifoda shakli, til va uslublariga doir tahlillarni amalga oshirish, taysiya etilgan badiiy asarlarni tahlil qilish va buning natijasida mutasavvif adiblar yoki tasavvufiy tariqatlar mazmuniga doir qarashlarni o'zlashtirish matnaksiga ega bo'lishi kerak.

4. TALABALAR KREDITLARNI OLİSH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarini to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarini bajarish, oraliq, yakuniy nazorat bo'yicha topshiriqlarini, test yoki yozma ishni muvaffaqiyatlil topshirish.

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalarining 2018-yil 9-avgustidagi 19-2018-sod buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'limgaz muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablar asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarini amalgal oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. **Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha og'zaki shaklida o'tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarining o'tkazilishi muddatlarini tuyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosha va qaror qabul qildi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytilb beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytilb beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (goniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMU

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

V semestr

Ma'ruza mashg'ulotlari taqdimot, ma'ruza, tarqatma materiallar asosida olib boriladi.

Nº	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Sotalar hajmi
1-bob (modul). Tasavvufning nazariy masalalari va ularning badiiy ijod jarayoni bilan mushtarakligi			
1	Tasavvufning paydo bo'lish tarixi va manbalari	Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lish tarixi bo'yicha ma'lumotlar taqdini etish. Sufijona adabiyotning vujudga kelishi va shakllanish bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar berish.	2
2	Tariqat va maqomot	Tasavvufdagagi tariqat va maqomot tushunchalarini ularning badiiy ifodasi haqida tasavvur berish. Sufijona adabiyotning nazariy manbalari bilan tanishtirish.	2
3	Ma'rifat va haqiqat	Tasavvufdagagi ma'rifat va haqiqat tushunchalarini, sufijona bishliq nazariysi, uning bosqichlari va ularning badiiy ifodasi haqida tasavvur berish.	
2	Tasavvuf silsilalari, Markaziy Osiyodagi tariqatlar	Tasavvuf silsilalarining yuzaga kelishi, o'ziga xos xususiyatlari. Markaziy Osiyodagi asosiy tariqatlar haqida ma'lumot berish.	2
5	Tasavvufda komil inson tushunchasi	Komil inson g'oyasi va timsolining sufijona talqinlarini aniqlash, dostonlardagi yetakchi talqinlar, obrazlarning hayotiy va ramziy mohiyati sharhanadi	2
2-bob (modul). Tasavvuf falsafasining badiiy talqinlari			
6	Tasavvuf va badiiy ijod	Adabiyot va tasavvufning o'zaro munosabati, bu jarayonni yuzaga keltirgan omillar va g'oyaviy mushtaraklik masalalari tahlil etiladi	2
7	Tasavvuf adabiyotining janr xususiyatlari	Tasavvuf adabiyotining janrlar tizimi, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari tahlili.	2
8	Tasavvuf timsollar	Eng muhim tasavvuf timsollarini, ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari o'rganiladi.	2
9	Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf g'oyalarini talqin	Ahmad Yassaviy, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Mashrab asarlarini misolida tasavvufiy tushuncha, timsol va qarashlarning badiiy talqinlari o'rganiladi.	2
10	Alisher Navoiy ijodida tasavvuf	Alisher Navoiyning tasavvuf ta'limgotiga munosabati, shoir ijodida mazkur ta'limgot g'oyalarining badiiy ifodasi masalalari o'rganiladi.	2
		Jami:	20 .

2. Amaliy mashg'ulotlar

Amaliy mashg'ulotlarida talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashg'ulotlariga tayyorlanish orqali yanada boyitadilar.

Nº	Seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Tasavvuf adabiyoti			
1	Tasavvufning paydo bo'lish tarixi va manbalari	Tasavvuf ta'lomitoning paydo bo'lish tarixi bo'yicha ma'lumotlar taqdirm etish. Sufiyona adabiyotning vujudga kelishi va shakllanish bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar berish.	2
2	Tariqat maqomlari	Tasavvufdagagi tariqat va maqomot tushunchalari va ularning badiiy ifodasi haqida tasavvur berish. Sufiyona adabiyotning nazariy manbalari bilan tanishitirish.	2
3	Ma'rifat va haqiqat	Tasavvufdagagi ma'rifat va haqiqat tushunchalari, sufiyona bilish nazariyasi, uning bosqichlari va ularning badiiy ifodasi haqida tasavvur berish.	2
4	Tasavvufda hol va fano tushunchalari	Sufiyona adabiyotning ifoda tarzida muhim o'rinni turtuvchi hol va fano tushunchalari, ularning ma'no qirralari va qo'llanishi doirasida haqida ma'lumotlar berish.	2
5	Tasavvuf silsilalari	Tasavvuf silsilalarining yuzaga kelishi, o'ziga xos xususiyatlari. Markaziy Osiyodagi asosiy tariqatlar haqida ma'lumot berish.	2
6	Markaziy Osiyodagi tariqatlar (Yassaviya, Kubroviya tariqatlari misolida)	Yassaviya va kubraviya tariqatlarining asosiy manbalari, ular yuzaga keltirgan adabiyotning xos yetakchi obrazlari va xususiyatlari o'rganiladi.	2
7	Markaziy Osiyodagi tariqatlar (Naqshbandiya tariqati misolida)	Naqshbandiya tariqatining asosiy manbalari, undagi o'n umda sharhi, naqshbandiya g'oyalarining badiiya adsabiyotdagi ifodalarini o'rganiladi.	2
8	Tasavvufda komil inson tushunchasi	Komil inson g'oyasi va timsolinining sufiyona talqinlarini aniqlash, dostonlardagi yetakchi talqinlar, obrazlarning hayoti va ramziy mohiyati sharhlaniadi.	2
9	Tasavvuf va badiiy ijod	Adabiyot va tasavvufning o'zaro munosabati, bu jarayonni yuzaga keltirgan omillar va g'oyaviy mushtaraklik masalalari tahlil etiladi.	2
10	Tasavvuf timsollari	Eng muhim tasavvuf timsollari, ularning mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	2

o'rganiladi.

Jami: 20 s.

3. Seminar mashg'ulotlar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish orqali yanada boyitadilar.

Nº	Seminar mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
1-bob (modul). Tasavvuf adabiyoti			
1	Tasavvufda muhabbat talqini	Tasavvuf adabiyotida muhabbat tushunchasi, uning turlari va badiiy talqinlari, u haqdagi eng muhim ta'riflar o'rganiladi.	2
2	Tazkiralarda so'fiylik va so'fiylar tasviri va tavsifi ("Tazkirat ul-avliyo" va "Nasoyim ul-muhabbat" misolida)	Tasavvuf adabiyotida mashhur bo'lgan sufiyolar hayoti va hikmatli so'zlar, ularning ramzlarini o'rganiladi.	2
3	Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asarida ilohiy ma'rifat	Jaloliddin Rumiyning ilohiyot haqidagi qarashlari va badiiy talqinlari "Ma'naviy masnaviy" asarining 1- va 2-kitoblari misolida tahlil qilinadi.	2
4	Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asarida ilohiy ma'rifat	Jaloliddin Rumiyning ilohiyot haqidagi qarashlari va badiiy talqinlari "Ma'naviy masnaviy" asarining 3- va 4-kitoblari misolida tahlil qilinadi.	2
5	Turkigo'y shoirlar ijdida naqshbandiylik g'oyalarining badiiy in'ikosi	Ahmad Yassaviy va boshqa turkiygo'y shoirlarning badiiy asrlarida aks etgan sufiyona qarashlar tadqiq etiladi.	2
6	Hamldarda vahdat ul-vujud g'oyalarini talqini	Hamd atamasi va uning genezisi, yetakchi obrazlari va xususiyatlari o'rganiladi.	2
7	Na't g'azallarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	Na't atamasi va uning ma'no qamrovi, obrazlari sistemasi va ifoda tarzi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.	2
8	"Ashraqat min aksi shams il-ka'si anvor ul-hudo..."(Alisher Navoiy) g'azalining tahlili	Alisher Navoiyning she'riy kulliyotining ushbu fotiha g'azaliga xos ma'nolar, timsollar va tasvirlar tahlil qilinadi.	2
9	"Lison ut-tayr"	"Lison ut-tayr" asarining ramziy obrazlari va	2

10	asarining tahlili Mashrab she'riyatida tasavvufiy mazmun	sufiyona ma'nolari o'chib beriladi. Mashrab she'riyatining ustuvor xususiyati, asosiy obrazlari va ularning badiiy talqini o'rganiladi.	2
		Jami:	20 s.

3. Mustaqil ta'lif ishlari

Talabaga mustaqil ta'lifni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanan tasviya etiladi:

- Darslik va o'quv qo'llannalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- Targatmaq materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.
- O'rganilmagan, muammoli mavzular bo'yicha tezis, maqolalar tayyorlash;
- Badiiy asarlarni o'qish va mutolaa qilish;
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanimadigan o'quv mashg'ulotlari.

Nº	Mustaqil ta'lif mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soatlar hajmi
I-bob (modul). Tasavvuf tarixi va manbalari				
1	Usmon Turamning "Tasavvuf tarixi" kitobini o'qib, tahlil qilish	mustaqil	Tasavvufning ilk manbalari, vakillari va asosiy g'oyalari haqidagi ma'lumotlar o'rganiladi	4
2	G'arb olimlari talqinida tasavvuf tariqatlarining tasnifi (J.Trimingem)	mustaqil	G'arb olimlarining tasavvuf ta'lilotiga munosabati, tadqiqotlari, ulardag'i tariqatlar tasnifi o'rganiladi	4
3	Hujviriyning "Kashfu-l-mahjub" asarida zikr qilingan tariqatlar	mustaqil	Ushbu asardagi tasavvuf masalalari, ularning mazmuni o'rganiladi	4
4	Yassavviylik va uning nazariy asoslari ("Faqrnomma" asosida)	mustaqil	Yassavviylikning nazariy asoslari, yetakchi timsollarini o'rganiladi	4
5	Maqomotlarda naqshbandiylikning suluk yo'li, darvishlik sifati, ahvol va axloqlari (Abul Muhsin Boqirning "Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" asari)	mustaqil	"Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" manoqibi asosida naqshbandiylikning suluk yo'li, darvishlik sifati, ahvol va axloqi o'rganiladi	4
6	Imom G'azzoliyning	mustaqil	Ko'ngil tushunchasi,	2

"Kimiyo i saodat" asarida ko'ngil falsafasi		sufiyarning unga ta'rif, xususan, G'azzoliyning ko'ngil haqidagi qarashlari o'rganiladi	
2-bob (modul). Tasavvufning nazariy masalalari va ularning badiiy adabiyotda aks etishi			
7	Farididdin Attorming "Mantiq ut-tayr" asarida tayhid falsafasi	mustaqil	Mazkur doston to'liq o'qilib, tayhid falsafasi aks etgan o'rinnlar tahlil qilinadi
8	Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy masnaviy" asarida mohiyat va hodisa masalasi (1-, 2-daftarlар misolida)	mustaqil	Dostonlarni to'liq mustaqil o'qib, mohiyat va hodisa, shakl va mazmunga o'id o'rinnlar tahlil qilinadi
9	Fano va tariqat tushunchalarining Abu Yazid (Boyazid) Bistomiyl tonomidan asoslanishi	mustaqil	Fano va tariqat tushunchalarini haqida mustaqil ish tayyorlanadi
10	"Nasoyim ul-muhabbat" asarida o'zbek mutasavviflari va mashoyixlari talqini	mustaqil	Tazkira to'liq o'qib chiqiladi va o'zbek mashoyixlariga ajratilgan o'rinnlar tahlil qilinadi
11	Navoiy "Xamsa"da komil inson masalasi	mustaqil	Komil inson tushunchasi o'rganilib, uning Navoiy "Xamsa"sidagi talqinlari tahlil etiladi
3-bob (modul). Sufiyona adabiyotning timsollar va ramzlar olами			
12	"Devoni hikmat"ning poetik xususiyatlari	mustaqil	Ahmad Yassaviy hikmatlaridagi tasavvufiy timsollar va ularning badiiyati o'rganiladi
13	Navoiy she'riyatidagi tasavvufiy timsollar	mustaqil	Yetakchi tasavvufiy timsollarning Navoiy she'riyatidagi talqinlari o'rganiladi
14	"Lison ut-tayr" dostonidagi hikoyatlarning ramziy obrazlari	mustaqil	Dostonidagi hikoyatlar o'rganilib, ulardag'i sufiyona ma'nolarga ega obrazlar tahlil etiladi
16	Bobur ijodida tasavvuf	mustaqil	Bobur ijodi, xususan, she'rleridagi tasavvufiy talqinlari o'rganiladi
17	So'fi Ollohyor risolalarida iymon va ma'rifat masalalarining qanday badiiy talqin etilgani	mustaqil	Shoir asarlarda iymon va ma'rifat masalalarining qanday badiiy talqin etilgani

			o'rganiladi	
18	Mashrab ijodida qafandariylik tariqati muammolarining aks etishi	mustaqil	Mashrab g'azallari o'qilib, ularda aks etgan qalandaryilik g'oyalari, ularning o'ziga xos xususiyatlari o'mailadi.	4

7. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

- Aksiyat adabiyotlari:

 1. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: “Movarounnahr” – “O’zbekiston”, 2009.
 2. Islam tasavvufi manbalari. (Tasavvuf nazariyasi va tarixi). Ilmiy majmua. Nashrha tayyorlovchi, so’zboshi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – Toshkent: O’qituvchi, 2005.
 3. Sirojiddinov Sh. O’zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2011.
 4. Sharq mumtoz poetikasi. Hamidulla Boltaboyev talqinida. – Toshkent: O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi ilmiy nashriyoti, 2006; 2008.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birligalida barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni (Xalq so'zi 2017 yil, 8 fevral).
 3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt raqaroqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.
 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori "Oly ta'lin tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida (Xalq so'zi 2017 yil, 21 aprel).
 5. Qur'on karim. Matn, tarjima, shahr. – T.: Islom universiteti nashriyoti, 2000.
 6. Abu Abdulluh Buxorui. Al-jomi' us-sahih. I-2 jiddlar. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi ilmiy nashriyoti, 2008.
 7. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jiddlik. 1-10 jiddlar. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2011.
 8. Komilov N. Xizr chashmasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
 9. Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. – T., 1991.
 10. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat – T., 1992.
 11. Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy masnaviy. 1-6 kitob. – T., 1999–2005.
 12. Sulaymon Boqir'oniy. Boqir'on kitobi. – T., 1991.
 13. So'fi Olloyor. Sabotul oqizin. – T., 1991.
 14. Mashrab. Mabdayi Nur. – T., 1994.
 15. A'zamov A. Munojotnomha. – Namangan: 1997. – T., 2001.
 16. Karomatov H. Qur'on va o'zbek adabiyoti. – T.: Fan, 1993.

10

11

17. Fitrat, Yassaviy maktabi shoirlari to‘g‘risida tekshirishlar. – Toshkent: 1928.
 18. Is‘hoqov Y. Naqshbandiya ta‘limoti va o‘zbek adabiyoti. – T.: 2002.
 19. Haqqul I. Tasavvuf saboqlari. – Buxoro: 2004.
 20. Ismoilov Ilyos. Navoishosniflik (Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni misolidagi). O‘quv qo’llanma // Mas’ul muharrir Sh. Sirojiddinov. – Toshkent: Akademnashr, 2023. – 240 b.
 21. Rahimov K. Movarounnah tasavvufi tarixi: ta‘limotning shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII–XI asrlar). – T.: Akademnashr, 2020.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.alishernavoiy.uz
 2. www.ziyouz.uz
 3. www.literature.uz
 4. www.kutubxona.uz

8. ISICHU Q'ONV DASTUR HAQIDA MA'LUMOT

Ishchi o'qiv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil “ ”-“ ”-dagi “ ”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrası müdiri, f.f.d., professor

N.Jabborov

Tarzusshilar:

K. Mullaxo'jayeva (imzo)
ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari

nomzodi.
I. Iomzilov (имзов)

ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrası dotsenti v.b., filologiya fanları doktori.

Taqrizchilar:

1. Adizova _____ (imzo)

ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrası professori, moliogiya rafsan doktori.

В. Тохлиев (ин-то) –
Доктор геолого-географических наук, профессор кафедры геологии и геохимии Узбекской Академии наук

1188 | MİHMET HÜSEYİN KARCAKASı | Profesör, Biyoloji Fakülte doktor